

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi

№ 1054
2021 yil «30» 08



YO'NALISHGA KIRISH
FANI
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 600 000-Xizmatlar sohasi

Ta'lim sohasi: 610 000-Xizmat ko'rsatish sohasi

Ta'lim yo'nalishi: 5640200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi

Qarshi-2021

Tuzuvchi:

Raximov O.D. — "Atrof-muhit muhofazasi va ekologiya" kafedrasi professori

Taqrizchilar:

Siddiqov I.X. — Toshkent axborot texnologiyalari universiteti «Energiya ta'minlash tizimlari» kafedrasi mudiri, t.f.d., prof.

Yuldotshev O'R. — Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi texnik ta'minot va ekspluatatsiya bo'limi boshlig'i, t.f.n., dotsent

"Yo'nalishga kirish" fan dasturi

Fan (modul) kodi IK2011	O'quv yili 2021-2022	Semestr 2	ECTS krediti 6
Fan (modul) turi tanlov	Ta'lim tili o'zbek		
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim	Jami yuklama
Yo'nalishga kirish	90	90	180

I. O'quv fanning dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu dasturda 5640200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bakalavr ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi (tanlov fani) «Yo'nalishga kirish» fanining mazmuni, predmeti va metodi, uning mohiyati, maqsadi va vazifalari, mehnatni muhofaza qilishning huquqiy, tashkiliy va me'yoriy asoslari, mehnat muhofazasi sohasida davlat siyosati, ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigienasi, xavfsizlik texnikasi asoslari va yong'in xavfsizligi kabi mavzular uzviylik va uzluksizlik nuqtai-nazaridan mantiqiy ketma-ketlikda o'z aksini topgan. Bu fanni o'rganish orqali mutaxassis kasbiy faoliyati davomida xavfsizlik va himoyalalanish chora-tadbirlarini to'liq o'zlashtiradi. Bu talablarga to'liq rioya qilish insonlarning ish qobiliyatini va sog'liklarini to'liq saqlashi va ekstremal vaziyatdan chiqa olishga tayyorgarligini oshiradi.

II. O'quv fanning maqsad va vazifalari

«Yo'nalishga kirish» fanining asosiy maqsadi talabalarni 5640200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bakalavr ta'lim yo'nalishining DTS, malaka talablari hamda yo'nalish asosiy obektlari, ish faoliyati sohalari bilan tanishtirish, insonning barcha ko'rinishdagi faoliyati davrida yuzaga keladigan xavfli omillar, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo'llarini puxta o'rgatish orqali talabalarda mehnat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan kasbiy hamda ijodiy-ilmiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.

Fanning vazifasi ishlab chiqarishda xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini yaratish, mehnat faoliyati xavfsizligini ta'minlash, inson va ishlab chiqarish muhiti o'rtasidagi munosabatlar, texnika ta'sirida o'zgargan atrof-muhitning inson sog'ligiga salbiy ta'siri hamda ishlab chiqarishdagi zararli va xavfli omillar va ular o'rtasidagi bog'liqlar to'g'risida nazariy bilim berish va amaliy ko'nikmalar hosil qilishdan iborat.

III. Fan bo'yicha talabalarining bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

«Yo'nalishga kirish» fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr quyidagilar bo'yicha nazariy bilimga ega bo'lishi kerak:

- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bakalavr ta'lim yo'nalishining DTS, malaka talablari hamda yo'nalish asosiy obektlari, ish faoliyati sohalari;
- mehnat muhofazasining nazariy asoslarini, mehnat xavfsizligini o'ziga xos qonuniyatlarini, texnik me'yorlarini joriy qila olishni;
- mehnat muhofazasi bo'yicha davlat siyosati, mehnat muhofazasining huquqiy tashkili va me'yoriy asoslarini;
- insonning fiziologiyasini bilgan holda mehnat sharoitlarini to'g'ri tashkil qilishni;
- jarohatga olib keluvchi zararli va xavfli omillarni keltirib chiqaruvchi vaziyatlarni aniqlash va chora-tadbirlar ishlab chiqishni;
- ishlab chiqarish muhitida jarohatlovchi, zararli va xavfli omillarni aniqlay olishni;
- ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigienasi, zararli omillar va ulardan himoyalash yo'llarini;
- texnika xavfsizligi, elektr xavfsizligi, AKT texnik vositalaridan foydalanishda XT qoidalarini;
- yong'in xavfsizligini ta'minlash va yong'inni o'chirish, oqibatlarini bartaraf etish tizimlarini.

Quyidagilar bo'yicha amaliy ko'nikmalar o'rtidirishi zarur:

- uskunalarining ko'rsatkichlarini va asboby ta'sir qilish darajasini me'yoriy talablarga mos kelishini nazorat qilish;
- jarohatlanishga olib keluvchi holatlarda himoya vositalaridan samarali foydalana bilish;
- ishlab chiqarish faoliyatida tozalikni ta'minlash va xavfsizlikni oshirish tadbirlarini ishlab chiqish;
- baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish tartiblarini;
- yong'inni o'chirish vositalari va texnik qurollaridan foydalanish, zarur bo'lganda yong'in oqibatlarini tugatish va qutqarish ishlarida amaliy ishtirok etish;
- elektr tokidan yoki boshqa jarohatlardan zararlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish;
- fanni o'rganish natijasida mehnat xavfsizligi, ishlab chiqarish sanitariyasi, yong'in xavfsizligi bo'yicha zaruriy hisoblash ishlarini amalga oshirish malakalariga ega bo'lishi kerak.

IV. Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

«Yo'nalishga kirish» umumkasbiy fani hisoblanib mehnat qonunchiligi, mehnat sanitariyasi va gigienasi, texnika, yong'in xavfsizligi fanlari bilan chambarchas bog'liq. Bulardan tashqari iqtisodiyot, matematika, kimyo, fizika, ekologiya, ergonomika va boshqa fanlar bilan ham bevosita aloqadordir. Bu fanni har bir yo'nalishga qo'yiladigan malaka xususida talablariga binoan bakalavr to'la shakllanishida 1-semestrlarda o'qitilishi belgilab qo'yilgan. Bu fanni mukammal o'zlashtirishda o'qiladigan gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar matematika va tabiiy fanlardan olingan bilimlarga asoslanadi.

V. Fanni ishlab chiqarishdagi o'rni

«Yo'nalishga kirish» fanini o'rganish talabalarining ta'lim yo'nalishining asosiy maqsadi, vazifasi va o'qitish ob'ektlari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ushbu fanga alohida talablar qo'yiladi va fan asosiy bilim soxalari ixtisoslik fani hisoblanib, ishlab chiqarish tizimining ajralmas bo'g'imidir.

VI. Fanni o'qitishda yangi axborot-pedagogik texnologiyalar

Yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o'zlashtirishni taqozo qiladi. Bunda asosiy e'tibor auditoriya mashg'ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o'zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda ob'ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantrishda ma'ruza mashg'ulotlariga katta o'rinni ajratiladi.

Dastur materiallarini o'zlashtirish to'rt xil:

- muammoli mavzular bo'yicha;
- mustaqil o'zlashtirilishi murakkab bo'lgan bo'limlar bo'yicha;
- ta'lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg'otuvchi bo'limlar bo'yicha;
- oldinga siljigan ma'ruzalarni interfaol usulda o'qitish yo'li bilan;
- mustaqil ta'lim olish va ishlash, kollektivlar va munozaralar jarayonida o'zlashtiriladigan bilimlar bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va me'yoriy hujjatlar bilan ishlashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg'ulotlari paytida qabul qilingan ma'lumotlarni mushohada qilish qobiliyatini ko'rsatishi zarur.

Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o'quv jarayonini tashkil qilishning yangi tamoyillari asosida amalga oshadi.

Fanni o'zlashtirishda masofadan o'qitish, darslik, o'quv qo'llanmalar va ma'ruzalarni matnlarining elektron versiyalaridan, ma'ruzalarni o'qish, elektron plakatlar va internet tarmog'idan foydalaniladi

VII. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

1-mavzu. "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" ta'lim yo'nalishining DTS, malaka talablari. Faoliyat ob'ektlari va kasbiy faoliyat turlari to'g'risida tushuncha.

Oliy ta'lim haqida. Davlat ta'lim standartlari va ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari klassifikatori. Ta'lim sohalarini bo'yicha malaka talablari to'g'risida tushuncha. Malaka talablari asosiy foydalanuvchilari. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi va bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalarini

2-mavzu. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta'lim yo'nalishining faoliyat ob'ektlari va ish sohalarini to'g'risida tushuncha. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari va kasbiy faoliyat turlari. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy texnika xavfsizligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi bakalavrlar ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

3,4-mavzu. Mehnat muhofaza qilishning maqsad va vazifalari. Asosiy bo'limlari va qisqacha mazmuni

Fanning maqsad va vazifalari. Talabalarining nazariy bilimlari va kasbiy ko'nikmalariga qo'yilgan talablar. Asosiy tushuncha va ta'riflar. Fanning asosiy bo'limlari va ularning mazmuni. Fanning rivojlanish tarixi va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

5-mavzu. Mehnat muhofaza qilishning nazariy asoslari

Xavf to'g'risida tushuncha va uning tasnifi. Xavfning taksonomiyasi, nomenklaturasi, kvantifikatsiyasi va identifikatsiyasi. Sabab va oqibat. Xavfsizlikni tizimli tahlili. Xavfsizlikni tahlil qilish usullari

6,7 -mavzu Ergonomika va mehnat psixologiyasi Mehnat muhofazasining ergonomik asoslari. Tizim faoliyatini kafolatlovchi muvofiqliklar. Mehnat muhofazasining psixologik asoslari. Xavfsizlik psixologiyasi

8,9-mavzu. Mehnat muhofazasining huquqiy, tashkiliy va me'yoriy asoslari

Mehnat muhofazasining huquqiy va tashkiliy asoslari. Mehnatni muxofaza qilish sohasidagi davlat siyosati. Mehnat muhofazasi bo'yicha asosiy qonunlar,

standartlar va me'yoriy hujjatlar. Mehnatni muxofaza qilish va mehnat xavfsizligini boshqarish va rejalashtirish. Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalar va ularni oldini olish.

10,11-mavzu. Ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigienasi. Zararli omillar va ulardan himoyalash yo'llari

Ishlab chiqarish sanitariyasining umumiy tushuncha va tariflari. Ishlab chiqarish sanitariyasining asosiy vazifasi. Mehnat gigienasi. Kasb kasalligini oldini olish va shaxsiy gigiena. Zararli changlar va ulardan himoyalash. Ishlab chiqarish chiqindilari va zararli moddalar. Ishlab chiqarish binolari va ish joylarining mikroiklimi. Ishlab chiqarish binolari va ish joylarini shamollatish. Ishlab chiqarish binolari va ish joylarini yoritish. Shovqin va undan himoyalash. Titrash va undan himoyalash. Zararli nurlanishlar va ulardan himoyalash.

12-mavzu. Ishlab chiqarishda xavfsizlik texnikasi

Xavfsizlik texnikasi to'g'risida umumiy ma'lumotlar. Mashina va mexanizmlarning xavfli zonalarini. Xavfsizlikni ta'minlovchi texnik vositalar. To'siq qurilmalari. Blokirovkalash qurilmalari. Saqlash qurilmalari.

Elektr xavfsizligi. Inson organizmining elektr tokiga qarshiligi. Insonni elektr tokidan shikastlanishining asosiy omillari. Elektr qurilmalarini himoya vositalari. Elektr xavfsizlik shartlari tahlili. Elektr tokidan jabrlangan kishiga birinchi yordam ko'rsatish.

13-mavzu. Axborot kommunikatsion tizimlar texnik vositalaridan foydalanishda xavfsizlik texnikasi

Axborot kommunikatsion tizimlar texnik vositalarida yuzaga keladigan xavfli va zararli omillar va ulardan himoyalash. Kompyuterlardan foydalanishda xavfsizlik talablari. Kompyuter xonalarga qo'yilgan ergonomik va sanitar-gigienik talablar. Tele-radio stansiyalar va uyali aloqa qurilmalaridan foydalanishning xavfsizlik texnikasi. Havo aloqa liniyalari va radioeshittirish tarmoqlaridan foydalanishda xavfsizlik texnikasi. Kabelli aloqa liniyalari foydalanishda xavfsizlik texnikasi. Optik tolali telekommunikatsiya tizimlaridan foydalanishda xavfsizlik texnikasi.

14,15-mavzu. Yong'in xavfsizligi

Yong'in xavfsizligi bo'yicha umumiy talablar. Yong'in xavfsizligi tizimlari. Yong'in va portlash sabablari. Yong'in jarayonining mohiyati. Materiallarning yonish va portlash bo'yicha tasnifi. Ishlab chiqarishni portlash, yonib-portlash va yong'in xavfsizligi bo'yicha kategoriyalari. Yong'inga xavfli zonalar. Yong'inga qarshi himoya tizimi. O't o'chiruvchi moddalar va ularning xususiyatlari. O't o'chirgichlar. Yong'inga qarshi suv ta'minoti. Yong'in muhofazasini tashkil etish va yong'inni o'chirish. Yong'inni aniqlash va o'chirishning avtomat vositalari, yong'in aloqasi va signalizatsiyasi, yong'inni o'chirishni tashkillashtirish. Evakuatsiya yo'llarini hisoblash.

16-mavzu. Kasaba uyushmalarining mehnat muhofazasini tashkil etishdagi roli

Kasaba uyushmalarining mehnat muhofazasini tashkil etishdagi roli, Kasaba uyushmalari faoliyati, tuzulish shakli, vakolatlari va faoliyatini tashkil

etilishi, kasaba uyushmasining huquqiy maqomi. Mehnatni muhofaza qilishdagi ishtiroki va o'ringi

17-mavzu. Mehnat qonunlariga rioya etilishini nazorat qilish

Mehnat qonunlarini buzganlik uchun javobgarlik

Mehnat qonunlariga rioya etilishini nazorat qiliuvchi tashkilotlar. O'z sanoat-kontexnazorat davlat qo'mitasi. Davlat yong'in nazorati. Davlat sanitariya nazorati. Davlat energetika nazorati. Mehnat qonunlarini buzganlik uchun javobgarlik, javobgarlik turlari.

18,19-mavzu. Ish vaqti va dam olish rejimi.

Ayollar va yoshlar mehnatini muhofaza qilish

Ish vaqti va uning belgilanishi. Dam olish, ovqatlanish uchun tanaffus, Dam olish kunlari, Yillik mehnat ta'tillari, Ish haqi saqlanmagan holda ta'til berish, Mehnat ta'tili muddati. Ish haqi saqlanmagan holda ta'til berish. Ayollar mehnati, Yoshlar mehnati.

20-mavzu. Ishlab chiqarish sanitariyasining umumiy tushuncha va tariflari.

Ishlab chiqarish sanitariyasi. Mehnat gigienasi.

Mehnat sharoitlari. Mehnat sharoitlarining turkumlanishi. Kasb kasalligini oldini olish va shaxsiy gigiena.

21-mavzu. Zararli changlarni inson sog'ligiga ta'siri hamda ulardan himoyalash yo'llari.

Ishlab chiqarishdagi inson sog'lig'iga zararli changlar va gazlarning ta'rifi. Zararli gazlar va ulardan himoyalash yo'llari. Ishlab chiqarish chiqindilari va zaharli moddalar. Ishlab chiqarish binolari va ish joylarining mikroiklimi.

22-mavzu. Jarohatlanganda vrachgacha birinchi yordam

Birinchi tibbiy yordam, vrachgacha birinchi yordamning mohiyati, bir biridan farqlari. Jarohat olgan bemorni xayotiy alomatlarini tekshirish qoidalari, jarohat turini aniqlash va unga kerakli yordam turimini tanlash qoida va ketma-ketligi

VIII. Seminar (amaliy) mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi namunaviy mavzular tavsiya etiladi:

1. Ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarni tekshirish va hisobga olish
- 2,3. Baxtsiz hodisalarni tahlil qilish usullari va jarohatlanish ko'rsatkichlarini aniqlash
4. XT bo'yicha yo'riqnomalar va ularni rasmiylashtirish tartibi
- 5,6. XT va ishlab chiqarish sanitariyasi bo'yicha yo'riqnomalar tuzish
7. Xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi bo'yicha ko'rsatmalar tuzish
8. Ishlab chiqarish xonalarining mikroiklim holatini tekshirish.
9. Ishlab chiqarishda shovqinni tekshirish
10. Ishlab chiqarish xonalarini sun'iy yoritishni hisoblash.
11. Ishlab chiqarish xonalarini tabiiy yoritishni hisoblash.
12. Tabiiy shamollatish qurilmalarini hisoblash
13. Ishlab chiqarish xonalarida mexanik havo almashtirishni hisoblash
14. Elektr xavfsizligi. Elektr qurilmalarini yerga ulashni hisoblash
15. Elekt tokining inson organizmiga ta'sirini o'rganish
- 16,17. Yuzalar va insonlarning radioaktiv zararlantirishini hisoblash
18. O't o'chirgichlarning tuzilishi va ishlatilishini o'rganish
19. O'zb.Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonuni" va "Mehnat kodeksi" ni o'rganish.
20. Yong'in xavfsizligi. Yong'inni oldini olish va yong'inga qarshi himoya sistemalari.
21. Kasaba uyushmalarining mehnat muhofazasini tashkil etishdagi roli.
- 22,23. Jarohatlanganda vrachgacha birinchi yordam birinchi yordam

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar

yechish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustaxkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

IX. Laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

X. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bilimlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabani o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distanstion) ta'lim;
- referatlar yozishni standart talablarga mos ravishda va hisoblash texnikasidan foydalanib mustaqil bajarishni o'z ichiga oladi.
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tayyorlash va h.k..

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Oliy ta'lim muassalarida o'quv jarayonini tashkil etish. O'qitishning huquqiy va me'yoriy asoslari
2. Mehnat muhofazasi bo'yicha davlat siyosati
3. Xavfsizlikni ta'minlashda tavakkalchilik nazariyasi.
4. "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun" va "Mehnat kodeksi"
5. Zararli omillar tasnifi, ulardan himoyalaniish yo'llari
6. Elektr xavfsizligi
7. Xavfsizlik psixologiyasi. Inson xarakteri va ruhiy holat
8. Kompyuterlar va mobil telefonlardan foydalanishda XT.
9. Yong'inni oldini olish, yong'inga qarshi himoya, yong'inni tarqalishini oldini olish va yong'inni o'chirish tizimlari

10. Kompyuter xonalariga bo'lgan ergonomik va sanitar-gigienik talablar.
11. Yong'in xavfsizligi sistemalariga qo'yilgan talablar.
12. Kompyuter va boshqa kommunikatsiya tizimlarda ishlashda xavfsizlik texnikasi.
13. Hayot faoliyat xavfsizligining tabiiy va ekologik asoslari
14. Mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosati. Mehnat muhofazasi bo'yicha asosiy qonunlar, standartlar va me'yoriy hujjatlar
15. Signalizatsiya va xavfsizlik belgilari tizimi
16. Xavf to'g'risida tushuncha va uning tasnifi.
17. Xavfsizlikni tizimli tahlili. Xavfsizlikni tahlil qilish uslublari
18. Zararli nurlanishlar va ulardan himoyalaniish
19. Yong'inni o'chirishni tashkillashtirish. Evakuatsiya yo'llari va chiqish yo'llarini hisoblash
20. Mehnat qonunlarini buzganlik uchun javobgarlik, javobgarlik turlari.

1. XI. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari.

Asosiy adabiyotlar

1. Raximov O.D., Siddiqov I.X., Murodov M.O. Hayot faoliyat xavfsizligi. Ekologiya. Darslik. //Toshkent: "Aloqachi" nashriyoti, 2017.-310b.
2. Raximov O.D., Yo'ldoshev O'R., Murodov M.O. Mehnatni muhofaza qilish. O'quv qo'llanma. //Toshkent: "Aloqachi" nashriyoti, 2018.-220b.
3. Introduction to Health and Safety at Work. Phil Hughes, Ed Ferrett. The Boulevard, Langford Lane, Kidlington, Oxford OX5 1GB, UK. ISBN: 978-0-08-097070-7.
4. Fundamentals of General Ecology, Life Safety and Environment Protection. Mark D Goldfein, Alexei V Ivanov, Nikolaj Kozhevnikov, V Kozhevnikov. Nova Science Publishers, Inc. (April 25, 2013).

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017.
2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. 2017.
3. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqboliga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // "Xalq so'zi" gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, № 11.

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. 1992.
5. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi mehnat kodeksi
7. Yormatov G'.Yo., Maxmudov R. Mehnatni muxofaza qilish ma'ruzalar to'plami 1-2 qism. Toshkent. 1995.
8. Yormatov G'.Yo., Isamuxamedov Yo.U. Mehnatni muxofaza qilish. Darslik. O'zbekistan nashriyoti. Toshkent 2002.

Internet saytlar:

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. www.lex.uz - O'zR Adliya vazirligi sayti.
3. www.ziynet.uz - O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.
4. www.bilim.uz - O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti.
5. www.mintrud.uz – O'zR Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi sayti.
6. hfxaximov.uz – Hayot faoliyat xavfsizligi fanidan shaxsiy veb-sayt (prof.O.D.Raximov sayti)